

"O'zkimyosanoat" AJ tashabbusi bilan "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ homiyligida Konsoy qishlog'iga elektr toki yetkazib berildi

// 19.12.2022

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/dkz-elektr-toki>




"O'zkimyosanoat" AJ tashabbusi bilan, yaqin-yaqingacha elektr toki yetib bormagan, aholisi esa asosan sham va boshqa yoritish qurilmalaridan foydalanib kun kechirayotgan Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanining olis, elektr energiyasi tarmog'idan 11 km uzoqlikdagi tog'li hududda joylashgan Konsoy qishlog'iga 10 kV yuqori kuchlanishli havo liniyasi tortildi. "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ homiyligida amalga oshirilgan loyiha doirasida qishloq hududiga transformator o'rnatilib, elektr energiyasi iste'moli uchun 0,4 kV havo liniyasi qurilish ishlari yakunlandi. Elektr uzatish tarmog'i uchun jami 160 dona tayanch ustunlari o'rnatildi.



Mazkur qishloq "Yangi O'zbekiston" MFYga qarashli bo'lib, 36 ta xonadonda 146 nafar aholi istiqomat qiladi. Qishloqda yagona bo'lgan maktabda 48 nafar o'quvchi tahsil oladi. Ushbu hayrli loyiha qishloq aholisiga quvonch, jajji bolalarning murg'ak qalbi-yu ko'zlariga baxtiyorlik ulashdi. Bu ishga ma'sul jamiyat xodimlari va aholi vakillari bilan bo'lgan suhbatda qishloq o'qituvchisi R.Xurramov: "Qishlog'imizga elektr


toki yetib kelishi, bizning yorug' kunga qadam qo'yishimiz", - deya sham yorug'idagi tunlar o'rnini endi yorug' kun egallashini ta'kidladi.







  uzkimyosanoat


  uzkimyosanoat.uz

 (+99878) 140-74-26



  uzkimyosanoat

  uzkimyosanoat.uz

 (+99878) 140-74-26



uzkimyosanoat



uzkimyosanoat.uz



(+99878) 140-74-26



“O'zkiyosanoat” AJ Matbuot xizmati